

**Statistika agentligining 2023-yil davomida korrupsiyaga qarshi  
kurashish tizimining amal qilishi haqida  
UMUMIY HISOBOT**

**I. Statistika agentligining Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot**

Statistika agentligi va uning tizimida joriy yil davomida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish tadbirlari har oyda kamida bir marotaba o‘tkazilib kelinmoqda. 2023-yilda markaziy apparat va hududiy statistika organlarida jami 273 ta profilaktik targibot va tashviqot ishlari olib borildi va ushbu tadbirlarga 1800 dan ortiq xodimlar ishtirok etishdi. Shu bilan birga, tizim xodimlariga 3000 dan ortiq korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishga qaratilgan ko‘rgazmali tarqatma materiallar tarqatildi.

Korrupsiyani oldini olishqa qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni talab darajasida olib bormaganligi uchun Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti hamda Toshkent viloyati statistika boshqarmalarining mas‘ul xodimlariga nisbatan intizomiy chora ko‘rishlik maqsadida Agentlik rahbariyatiga asosli takliflar kiritildi. Buning sababi, ushbu tizim tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi **“Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-81-son** qarorining ijrosi o‘z vaqtida to‘liq ta‘minlanmaganligi aniqlangan.

**II. Siyosat va tartib-taomillar**

Statistika agentligining 2021-yil 29-dekabrda **127-son buyrug‘i** bilan (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo‘riqnomalar, va nizom) tasdiqlangan ichki idoraviy hujjatlar: Odob-axloq qoidalari, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish, kontragentlarni tekshirish, ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish, monitoring va nazorat qilish, korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish, xizmat tekshiruvlari o‘tkazish kabi yo‘nalishlar yuzasidan iashlar tashkil etildi. Ularning natijalari to‘g‘risidagi axboroti Statistika agentligining Ha‘yat yig‘ilishiga taqdim etildi.

Statistika agentligining 2023-yil 5-yanvardagi **2-son buyrug‘i** bilan statistika organlaridagi jami 55 ta vazifa va funksiyalar korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi yuzasidan baholanib, unga ko‘ra 2 ta yuqori, 5 ta o‘rta va 48 past xavf-xatarlar darajasi sifatida belgilandi.

Statistika agentligining 2023-yil 20-iyundagi **37-son buyrug‘i** bilan statistika organlarida korrupsiya holatlari yuzasidan rahbariyatga o‘z vaqtida murojaat qilgan xodimlarni rag‘batlantirish bo‘yicha ichki Reglament ishlab chiqilib belgilangan tartibda tasdiqlandi.

Statistika agentligining 2023-yil 30-oktabrdagi **74-son buyrug‘i** bilan statistika organlaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi yuqori va o‘rta bo‘lgan lavozimda ishlovchi xodimlar bilan umumiy va maxsus o‘qitishni tashkil etish tartibi belgilandi.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash**

Statistika organlarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida Statistika agentligi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o‘zaro hamkorlikda, 2023-yilning sentabr oyida statistika organlarining jami 55 ta vazifa va funksiyalar korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi baholanib, unga ko‘ra 2 ta yuqori, 5 ta o‘rta va 48 tasi esa past xavf-xatarlar darajasi sifatida belgilandi.

Statistika agentligining 2023-yil uchun hududiy statistika boshqarmalaridan Uslubiyotning 14-bandiga binoan, Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hududiy statistika organlarining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ullari tomonidan ishlab chiqilib, javob xati olingan. Hududiy statistika organlaridan olingan javob xatlariga asosan takliflar ishlab chiqilmoqda hamda korrupsiyaviy xavf-xatarga ega bo‘lgan lavozim va bo‘linmalar ustidan nazorat olib borilmoqda. Xususan, ularning ish faoliyati ochiqligi va raqamlashtirish ishlari yo‘lga qo‘yilganligi bo‘yicha nazorat olib borilmoqda. Masalan, Davlat xaridlari bo‘yicha ma‘lumotlar har chorak yakuniga ko‘ra Statistika agentligining rasmiy sayti [stat.uz](https://stat.uz)ga joylashtirilmoqda. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/byudjet-to-g-risidagi-qonunchilik-hujjatlariga-muvofiq-ochiq-ma-lumotlar>

Yig‘ma-axborot ishlari boshqarmasi tomonidan statistik to‘plamlarni xarid qilish ishlari elektronlashtirildi va [http://web.stat.uz/search/book\\_reg/uz/main.php](http://web.stat.uz/search/book_reg/uz/main.php) maxsus sayt orqali xaridlar amalga oshirishi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-240-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022- yil 31- avgustdagi “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalar va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida” 3383-son qaroridagi tegishli bandlari ijrosi yuzasidan ishlar belgilangan tartibda amalga oshirilgan.

### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish.**

Statistika agentligining 2021-yil 29-dekabrda 127-son buyrug‘i 3-ilovasi bilan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” tasdiqlangan.

Nizomga asoslanib, hududiy statistika boshqarmalarida deklaratsiya kadrlar boshqarmasi tomonidan xodimlarga tanishtirib, imzolangan holda yigʻma jildga tikilgan. Markaziy apparat xodimlari oʻrtasida jami 21 ta yaqin qarindoshligi bor holat aniqlandi ulardan hech biri bevosita boʻysunish holati kuzatilmaganligi sababli ular bilan tushuntirish ishlari olib borildi.

Markaziy apparat va hududiy statistika organlari kesimida manfaatlar toʻqnashuvining yillik deklaratsiyasi kadrlar boshqarmasi tomonidan xodimlarga tanishtirib, imzolangan holda yigʻma jildga tikilgan.

Statistika agentligi tizimida manfaatlar toʻqnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillari, Kadrlar boshqarmasi tomonidan xodimlarga tanishtirib, imzolangan holda yigʻma jildga tikilgan. Shuningdek, 2023-yilda hududiy statistika organlari kesimida manfaatlar toʻqnashuvining yillik deklaratsiyasi tartib-taomillari, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan qilingan ishlar toʻgʻrisida maʼlumotlar olindi.

Shu bilan birga tizim xodimlaridan Korrupsiya holatlari va manfaatlar toʻqnashuviga yoʻl qoʻymasligi va buning oqiyatlari salbiy holatlarga olib kelishi yuzasidan kafolat xati olindi.

### **Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Statistika agentligining barcha sharnomalariga kiritish**

Korrupsiyaga qarshi kurashishda qoʻmita shartnomalariga oʻzgartirish kiritish boʻyicha ishlar amalga oshirildi. Masalan, xodimlarni ishga qabul qilishda mehnat shartnomalariga hamda korxonalar va tashkilotlar bilan tuziladigan konsalting shartnomalariga korrupsiyaga oid alohida band qoʻshildi hamda amaliyotga tadbiq etildi. Shu jumladan markaziy apparatda kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalar va ular toʻgʻrisidagi maʼlumotlar tahlil qilindi. Kontragentlarning korrupsiyaga qarshi qoidalarini shartnomalarga kiritish boʻyicha taklif berildi.

Statistika agentligi va hududiy statistika organlari kesimida tashkilot tizimida kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish boʻyicha tahliliy maʼlumotlar kuzatilmadi.

### **Ishga nomzodlarni tekshirish**

Statistika agentligi tizimiga ishga kirish uchun nomzodlar: markaziy apparat va hududiy statistika tizimiga ishga kirish uchun (<https://vacancy.argos.uz/>) orqali ochiq tanlov asosida qabul qilinib kelinmoqda hamda nomzodlar test sinovlari va suhbat jarayonlari ochiqlik va shaffoflik prinsplari asosida maxsus ishchi komissiya nazorati ostida tashkil etilgan. Boʻsh ish oʻrinlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar tashkilotning rasmiy [stat.uz](https://stat.uz) veb saytiga joylashtirildi.

## **V. Taʼlim va kommunikatsiya**

Statistika agentligi huzuridagi Kadrlarni malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida hududiy statistika organlari kesimida 2023-yil davomida 642 nafar (2022-yilda 610 ta) xodimlar korrupsiyaviy omillarga nisbatan murosasiz koʻnikmalarni shakllantirish boʻyicha oʻqitilib, malaka koʻnikmalari oshirildi.

Statistik agentligi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining 5-sonli bayonnomasi ijrosini taʼminlash maqsadida

joriy yilning 12-oktabr kuni Qashqadaryo viloyati korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengash bilan hamkorlikda Qashqadaryo viloyatidagi 50 dan ortiq korxonalar va tashkilotlarning vakillari ishtirokida seminar-trening o'tkazildi va statistika organlarining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilindi.

Statistika organlarining barcha bo'g'inlarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish hamda xodimlarda korrupsiyaviy omillarga nisbatan murosasiz ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek mehnat jamoasida "Halollik vaksinasi"ga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida joriy yilda Respublika miqyosida jami 193 ta seminar-trening va davra suhbatlari olib borilib, ushbu tadbirlar jarayonida 3000 dan ortiq korrupsiyani oldini olishga qaratilgan buklet, banner, flayer va boshqa ko'rgazmali materiallar tarqatildi.

"9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" munosabati bilan o'tkazilayotgan Antikorrupitsiya oyligi doirasida 2023-yil 5-dekabr kuni Statistika agentligi ma'muriy binosida keng jamoatchilikni jalb qilgan holda "Ochiq eshiklari kuni" tadbiri o'tkazildi.

## **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakterlar va huquqbuzarliklar to'rtinchi xabarlar**

Statistika agentligining 2021-yil 29-dekabrda 127-son buyrug'ining 9-ildavosi bilan **"Hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom"** tasdiqlangan. Ushbu, Nizomga asosan, hududiy statistika boshqarmalaridan hisobotlarni har chorakning yakuni bo'yicha keyingi oyning 10-sanasiga qadar ma'lumotlarni berish topshirig'i berilgan.

Statistika agentligi va hududiy statistika organlari kesimida xodimlar tomonidan korrupsiya holatlari aniqlanganda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikka muvofiq bekor qilinishi haqida ogohlantirilgan.

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'rtinchi xabarlar markaziy apparat va hududiy statistika organlari kesimida aloqa kanallari orqali kelib tushmagan.

Ishonch telefonlari domiy ravishda nazoratga olingan va joriy yilda korrupsiyaviy omillar to'rtinchi xabarlar ma'lumotlar kelib tushmagan.

## **VII. Monitoring va nazorat**

Hududiy statistika organlari kesimida tekshiruvlar o'tkazish, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatining 2023-yil uchun tasdiqlangan reja grafigiga muvofiq, amalga oshirildi. Jumladan:

I-chorakda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan tizimda korrupsiyani oldini olish va barcha xodimlarda korrupsiya illatlariga nisbatan murosasiz ko'nikmalarni shakllantirish ishlari amalga oshirildi;

II-chorakda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati statistika boshqarmalarida o'rganish ishlari amalga oshirildi va natijasi yuzasidan Statistika agentligi rahbariyatiga tegishli ma'lumotlar kiritildi;

III-chorakda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati tomonidan Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti va Andijon viloyati, Namangan viloyati, Fargʻona viloyati, Buxoro viloyati, Samarqand viloyati, Navoiy viloyatlarida oʻrganishlar amalga oshirildi, oʻrganishlar davrida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan maʼsul xodimlarga tushuntirishlar berildi. Andijon viloyati statistika boshqarmasi faoliyatida 2023-yil davomida 850.000 soʻm byudjet mablagʻlari maqsadsiz sarflanganligi aniqlanib, ushbu mablagʻlar oʻrganish davomida toʻliq davlat hisobiga qaytarildi. Hududiy statistika organlari xodimlariga korrupsiyaga doir bilim, koʻnikmalar va korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqaruvchi holatlar yuzasidan seminar-trening va davra suhbatlari oʻtkazildi;

IV-chorakda Toshkent shahar, Toshkent viloyati, Jizzax viloyati va Sirdaryo viloyatlarida oʻrganishlar amalga oshirildi, aniqlangan xato va kamchiliklar yuzasidan masʼul xodimlarga tushuntirish va ogohlantirishlar berib oʻtildi.

Hududiy statistika organlari xodimlariga korrupsiyaga doir bilim, koʻnikmalar va korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqaruvchi holatlar yuzasidan davra suhbatlari oʻtkazildi. Hududiy statistika boshqarma boshliqlariga korrupsiyaviy holatlar yuzaga kelmasligi uchun tegishli takliflar berildi.

### **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga taʼsir choralari**

Andijon viloyati statistika boshqarmasi faoliyatida 2023-yil davomida 850.000 soʻm byudjet mablagʻlari maqsadsiz sarflanganligi aniqlanib, ushbu mablagʻlar oʻrganish davomida toʻliq davlat hisobiga qaytarildi hamda masʼul xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy choralar koʻrildi.

### **IX. Xulosalar**

Xodimlarni ishga qabul qilish toʻliq DXRA (ARGOS) orqali qabul qilinib kelinmoqda. Boʻsh ish oʻrinlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar Statistika agentligining rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/e-lonlarr> eʼlon qilindi.

Ochiqlik va shaffoflikni taʼminlash boʻyicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Bulardan har chorak yakuni boʻyicha davlat xaridlari yuzasidan hisobot tayyorlanib, qoʻmitaning rasmiy saytiga <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/byudjet-to-g-risidagi-qonunchilik-hujjatlariga-muvofiq-ochiq-ma-lumotlar> joylashtirildi.

Statistika agentligida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan va barcha hududiy organlarga yuborilgan. Hududiy statistika boshqarmalari har chorak yakuni boʻyicha hisobot taqdim etishdi.

Joylarga chiqqan holda hududlarning korrupsiyaga qarshi amalga oshirayotgan ishlarni oʻrganish yoʻlga qoʻyilgan. 2023-yilning yanvar-dekabr oylari davomida tasdiqlangan reja-grafik asosida oʻrganishlar amalga oshirildi va natijalar yuzasidan rahbariyatga tegishli maʼlumotlar kiritildi hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish boʻyicha rahbariyatga asosli takliflar taqdim etildi.

## **X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi**

Tizim xodimlarini eng avvalo, korrupsiya illatlariga nisbatan murosasiz ko'nikmalarini shakllantirish yo'li bilan korrupsion holatlarni minimallashtirishga erishish ko'zda tutiladi. Shu bois, tizimli ravishda statistika organlarida targ'ibot va tashviqot ishlarini doimiy ravishda tashkil etish maqsadga muvofiq.